

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGI**

**NAVOIY VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI
METODIKALARGA O'RGATISH MILLIY
MARKAZI**

**TA'LIM TIZIMIDA YANGI METODIKALAR
VA ULARDAN FOYDALANISHNING AMALIY
ASOSLARI**

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

T O' PLAMI





Ta'lismizda yangi metodikalar va ulardan foydalananishning amaliy asoslari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Navoiy: Navoiy viloyati PYaMO'MM nashri, 2023. 366 b.

Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazida tashkil etilgan "Ta'lismizda yangi metodikalar va ulardan foydalananishning amaliy asoslari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamida uzlucksiz ta'lismizda tadqiqot olib borayotgan mutaxassis-olimlar, mustaqil izlanuvchilar ilmiy-nazariy izlanishlarining amaliy tadbiqlari keltirilgan. Raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish borasidagi tajribalari maktab o'qituvchilarining taklif va tavsiyalari, umumta'lim fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalinish hamda ta'lim, fan, xalqaro aloqalar va boshqaruv faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirish hamda "Insonga e'tibor va sifatlari ta'lim yili" Davlat dasturida belgilangan vazifalar doirasida bajarilayotgan izlanishlarga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot natijalari yoritilgan.

Konferensiya materiallaridan oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, umumta'lim maktablari o'qituvchilar, magistrantlar va iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar foydalanihsilari mumkin.

TAHRIR HAY'ATI

<i>Ro'ziqulov F.R.</i>	- psixologiya fanlari nomzodi, dotsent
<i>Pulotov A.M.</i>	- pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
<i>Suvonov O.O.</i>	- kafedra mudiri, dotsent
<i>Cho'liyev E.A.</i>	- fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
<i>Xasanova Sh.B.</i>	- kafedra mudiri, dotsent
<i>Djurayeva P.S.</i>	- dotsent v.v.b.
<i>Qurbanova X.T.</i>	- katta o'qituvchi
<i>Hamdamova N.X.</i>	- katta o'qituvchi
<i>Boboqulov J.Q.</i>	- UKTTE bo'limi boshlig'i

Texnik muharrir:

Jalilov D.J.

Maqolalar mazmuni va ma'lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar mas'ul.

Konferensiya materiallari to'plami Navoiy viloyati PYMO'MM Ilmiy-metodik kengashi (2023-yil 28-fevral, 2-sonli) qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.



KIRISH SO'ZI

Assalomu alaykum!

Aziz mehmonlar, anjuman ishtirokchilari! “Ta’lim tizimida yangi metodikalar va ulardan foydalananishning amaliy asoslari” mavzusidagi bugungi respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumanida, (videokonferensiyada) Siz muhtaram mehmonlar, ilm-ma’rifat ahli bilan muloqotda bo‘lishni o‘ta mammuniyat bilan qabul qilaman.

Bugungi kunda dunyo taraqqiyotini ilm-fan va axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoev mamlakatimizdagi ijtimoiy jarayonlar haqida ishonchli axborot berish maqsadida matbuot anjumanlari, brifinglar, mediaturalar tashkil etilmoqda, hayotimizdagi muammo va hodisalarga tezkor munosabat bildirilmoqda, ularning veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, mobil missenjerlardagi sahifalari yangilab borilmoqda. Bugun biz hamma sohada, jumladan, ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish borasida yutuqlar bilan birga, kamchiliklar va nuqsonlar bo‘lishi ham tabiiydir. Jahonda shiddat bilan davom etayotgan globallashuv, inovatsion texnologik jarayonlarning murakkablashishi va tezlashishi natijasida axborot xurujlarining inson ruhitiga tasirining mohiyatini ohib berish, insondagi o‘ziga xos psixologik xususiyatlar rivojlanishini ob’ektiv aks ettirish muammosi yuzaga kelmoqda. Axborot xurujlari olam shaxsning psixologik, ijtimoiy, madaniy, axloqiy xususiyatlariga katta o‘zgarishlar olib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan insoniyatning xususan, yoshlarning butun dunyo bo‘ylab duch keladigan asosiy muammolardan biri internetga tobelik bo‘lib, o‘z-o‘zidan yoshlarning kundalik turmush tarziga, kasbiy tayyorgarligi va kamolotiga sezilarli darajada salbiy ta’sirini oldini olish, ijtimoiy tarmoqlardan foydalananish metodikasini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Axborot texnologiyalardagi taraqqiyot yoshlarimizni, o‘sib kelayotgan avlod uchun yangi qirralarni ochilishiga imkon bersa-da, undan foydalananishning ham o‘ziga xos muammolari mavjud. Bolalar internetdan foydalana turib yovuz niyatli odamlarga duch kelib qolmoqdalar. Internetdagi noma’lum kishi bilan muloqot ishonchli va do‘stona munosabat o‘rnatishga imkon yaratadi. Jinoyatchi ushbu afzallikdan foydalangan holda tajribasiz yoshlarni o‘ziga bog‘lab olmoqda. Siz farzandingizni interetdagi xavfdan asray olasiz, qaysiki uni tarmoqdan qanday foydalayotganligini nazorat qila olsangiz. Jinoyatchilar bolalar bilan chatda lahzali axborotlar almashtirishda, elektron pochta yoki forumlardan foydalanimib aloqa o‘rnatish ustunligiga erishmoqda.

Bu esa, yoshlarda axborotni tahlil qilish kompetentsiyasini rivojlantirish va har qanday axborot xurujlariga qarshi kurashish ko‘nikmasini shakllantirish ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan fidokor ustozlarimizning asosiy vazifalaridan biridir.

Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, keyingi vaqtarda mamlakatimizga nisbatan axborot-psixologik tahdidlar sodir etilmoqda. Xususan, ular hozirgi zamon ommaviy axborot vositalaridan foydalananish orqali dunyoning turli hududlarida o‘zlariga mos mafkuraviy muhitni shakllantirish maqsadlarini ko‘zlamoqda.



Pedagogik markazimizda amalga oshirilayotgan ishlarning asosiy mazmuni bu - yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash, ularni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilinishini kuchaytirish, dars mashg'ulotlari sifatini yuqori darajada ta'minlashhamda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarni amaliyatga joriy etish, yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlar salohiyatini ko'tarish, ta'lism ko'rsatkichlari sifatini nazorat qilish tizimini uzlusiz takomillashtirish, ta'limning ishlab chiqarish bilan integratsiyasi darajasini ko'tarish, mehnatga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirish va ijro intizomiga qat'iy rioya qilishni talab etadi.

“Umumta'lism maktablari ta'lism jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalananishning dolzarb muammolari va yechimlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanni maqsadi ilmiy izlanuvchilarning nazariy va amaliy tavsiyalarini, ta'lism jarayoniga xalqaro tajriba va innovatsiyalarni tadbiq etish, taklif va tavsiyalarini umumlashtirish, fanlarni o'qitishda innovatsion-pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish, uzlusiz ta'limga mavjud uzviylikni takomillashtirishdan iboratdir.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari! Ta'lism tizimidagi innovatsion islohotlarga kreativ yondashuv, milliy ta'lism va uzlusiz malaka oshirishni hamkorlikda tashkil etishda mamlakatimizda ta'lism sohasini rivojlantirish, xalq ta'limi muassasalarini dunyo reytingining yuqori pog'onalarida turadigan ta'lism muassasalari bilan raqobatlasha oladigan ta'lism dargohlariga aylantirish maqsad qilib qo'yilgan. O'ylaymanki, ushbu anjuman ham o'ziga xos tarzda muayyan maqsadlarimizni amalga oshirish, innovatsion yondashuvlar milliy ta'lism tizimini takomillashtirishning zamonaviy tadqiqtolar asosidagi munozaralar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Qadrli anjuman ishtirokchilari va aziz mehmonlar!

Shu fursatdan foydalaniib, anjumanda ishtirok etayotgan hurmatli professor-o'qituvchilar, ustoz va murabbiylarga, ilmiy konferentsiyaga tashrif buyurganingiz uchun o'z minnatdorchiligidagi bildirgan holda, Sizlarga mustahkam sog'lik, ilm-fan yo'lidagi xayrli ishlaringizda omadlar tilayman. Anjumanni o'z nufuzi jihatdan yuqori ilmiy saviyada samarali o'tishiga tilakdoshman.

*F.R. Ro'ziqulov
Navoiy viloyati PYMO'MM direktori*



<i>Qodirova F.U., Dehqonova M.G'.</i>	Zamonaviy ta'lim tizimida neyrologopedik yondoshuvlarning o'rni	191
<i>Mo'minov S., Alimova G.</i>	Umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim	194
<i>Джураева П.С.</i>	Жалпы орта білім беру мектептерінде инклюзивті білім беруді ұйымдастыру	199
<i>Qurbanova X.T.</i>	Inklyuziv ta'limda nogiron bolalarni o'qitish	202
<i>Ishmatova O.S., Xusnuddinova Z.</i>	Alohiда ehtiyojli boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari	204
<i>Джураева П.С.</i>	Инклюзивті білім беру мәселелері және оны шешу жолдары	211
<i>Usmonova D.T.</i>	Bo'lajak pedagoglarda inklyuziv kompetentlikni rivojlantirishning konseptual asoslari	215
<i>Qurbanova X.T.</i>	Inklyuziv ta'lim sohasida imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash	218
<i>Ibadullayeva Sh.N., Bo'ronboyeva Sh.Q.</i>	Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun yaratilgan imtiyozlar	220
<i>Қўзиева С.А, Хамроева З.</i>	Умумтаълим мактабларида инклюзив таълимни ривожлантириш масалалари	223
<i>Бегманова Г.</i>	Өзбекстан республикасының мектепке дейінгі және бастауыш білім беру жүйесіне инклюзивті білім берудің жаңа технологияларын енгізу және интеграциялау	225
<i>Ibadullayeva Sh.N., Bo'riyeva D.A.</i>	Hozirgi kunda rivojlanib borayotgan surdo pedagogika	228
<i>Кобилова Ш.Х.</i>	Инклюзив таълим мухитида ўқувчиларни хавфсиз хаётга ундаш мотивини ривожлантириш	232
<i>Abdullahayeva Yu.M.</i>	Eshitishda kamchiligi bor bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish	235
<i>Ibadullayeva Sh.N., Maxkamova N.B.</i>	Inklyuziv ta'lim: Muammo va yechimlari	240
<i>Qurbanova N.T.</i>	Ta'limda imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish, tarbiyalash	243
<i>Axmadova G.O.</i>	Ta'lim tizimiga inklyuziv ta'lim shaklini joriy etish	246
<i>Азимкулова Ю.А</i>	Инклюзивті тәлім үдерісінде мүгедіктігі болған балаларға психологияк қызметті ұйымдастыру.	248
<i>Құдайбердиева Б.</i>	Инклюзивті тәлімде қолданылатын инновацион әдістерді тандау	251
<i>Абдуллаева К.</i>	Инклюзивті тәлім үдерісінде мүгедек балаларды үйірмелерге жұмылдыру	254
<i>Нұржанова П.</i>	Инклюзивті білім беруді оқыту методикасын үрлену	257
<i>Ешова И.</i>	Әртүрлі пәндерді оқытуда мүмкіндігі шектеулі	259



- Медициналық қызметкерлер, әр түрлі маманданган дәрігерлер,

диетологтар әр түрлі органикалық немесе қызметтік себептерден болған бой өсүнің тежелуі, көруі немесе естуі нашарлаған, оқуы мен мінез-құлқында проблемалар туындаған жағдайда елеулі көмек көрсете алады.

Жалпы білім беретін мектептердегі инклузивті үдерісті сүйемелдеу дегеніміз инклузивті тәжірибелі жүзеге асыратын әр түрлі ұйымдардың пәнаралық өзара әрекеттестігінің көпдеңгейлі бір-біріне бағынышты жүйе болып табылады. Білім беру ұйымдарындағы психологиялық -педагогикалық жұмысты кең мағынада қарастыру керек, себебі, міндетті түрде оның адресаты тек балалар ғана емес, педагогтар, ата-аналар және олармен байланысатын басқа да ересектер болады. Сәйкесінше, білім беру ұйымы дамуының спецификалық міндеттеріне байланысты педагогтар мен мамандар жұмысының ортақ мақсаты жасының, білім алу және басқа қажеттіліктерін қанағаттандыру үшін балалар мен білім беру үдерісінің басқа қатысушыларын психологиялық-педагогикалық сүйемелдеу жүйесін жасау болып табылады.

Инклузивті мектептерде психологиялық-педагогикалық сүйемелдеуді ұйымдастыру – бұл, ең алдымен, даму мүмкіндігі шектеулі балалардың актуалды жағдайы және жақын даму перспективалары тұрғысынан баланың психологиялық-педагогикалық статусын жүйелі түрде қадағалау, балаларды нәтижелі оқыту мен дамыту, нақты бір баланың оқыту, сөйлесу психикалық күйінің проблемаларын шешу үшін әлеуметтік-педагогикалық жағдай жасау. Сонымен қатар, жалпы білім беретін үдерісте даму мүмкіндігі шектеулі балаларды нәтижелі педагогикалық қолдау, оларды қоғамда әлеуметтендіру білім беру үдерісіне қатысушылардың, ең алдымен, мектеп мұғалімдерінің даму мүмкіндігі шектеулі баламен жұмыс істеуге қажетті білім мен құзыреттілік болған жағдайда ғана жүзеге асады.

Жалпы білім беретін үдерісте даму мүмкіндігі шектеулі баланы оқыту мен тәрбиелеу барысында әр түрлі мамандар мен мектеп мұғалімдерінің өзара әрекеттестігінің спецификасы болып білім беру үдерісіне барлық қатысушылардың мұғалім-дефектологтың жетекшілігімен өзара тығыз әрекеттесуі және білім беру, тәрбиелеу мен түзету міндеттерін бірігіп шешу болып табылады.

HOZIRGI KUNDA RIVOJLANIB BORAYOTGAN SURDO PEDAGOGIKA

*Ibadullayeva Sh.N.,
CHDPU o'qituvchisi
Bo'riyeva D.A.,
CHDPU talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada siz surdo pedagogikaning rivojlanib borishi, eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslarning ta'lif tarbiyasi, psixologiyasi, ular haqida qabul qilingan yangi qonunlar, bolalarni mehnatga tayyorlash to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

Kalit so'zlar: defektologiya, surdo pedagogika, kar, zaif eshituvchi, daktilologiya, brayl, otolaringologiya, akustika, tilshunoslik, logopediya, maxsus pedagogika, psixologiya, fiziologiya.

Surdo pedagogika so'zi lotin tilidan olingan bo'lib "surdus" kar va pedagogika degan ma'noni anglatadi. Demak, surdo pedagogika-defektologiyaning tarmoqlaridan

biri. Kar va zaif eshituvchi bolalarning ta'lismi-tarbiysi, psixologiyasi bilan ishlaydigan soha hisoblanadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanish xususiyatlarini o'rganib, maxsus o'quv tarbiya jarayonlarini tuzish tartibini ishlab chiqadi. Bularga o'quv fanlarni o'qitish, talaffuzni o'rgatish, "lab bilan o'qish" mehnatga o'rgatish kabilalar kiradi. Fan asoslarini o'rganish bilan zaif eshituvchi bolalarda og'zaki nutq shakllanib boradi. Zaif eshituvchi bolalarga og'zaki nutqni o'rgatishda so'zlar talaffuz qilinadi va nutq organlari harakati kuzatiladi. Shu harakatga qarab zaif eshituvchilar tovush va so'zлarni farqlashga ya'ni "labga qarab o'qishga" o'rganadi. Nutq harakatini takrorlashni o'rgangan zaif eshituvchi gapiresh imkoniyatiga ega bo'ladi. Bundan tashqari karlar maxsus o'quv alifbosi-daktilologiyadan foydalanib gapireshlari mumkin. Surdo pedagogika otolarigologiya, akustika, logopediya, maxsus pedagogika, tilshunoslik, psixologiya, fiziologiya kabi sohalar bilan uzviy bog'liq. Surdo pedagogika taraqqiyoti davomida eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun ta'lismi-tarbiya muassasalari tizmi shakillandi. Sobiq ittifoq jumladan, O'zbekiston hududida dastlab karlarning boshlang'ich ta'lismi ta'minlovchi muassasalar tashkil topdi, keyinroq – bolalarni maktabgacha tarbiya muassasalari barpo bo'ldi.

50-60-yillarda kar va zaif eshituvchi bolalarga to'liqsiz o'rta va o'rta ma'lumot beruvchi maxsus maktablar tashkil topa boshladi. 80-90-yillardan boshlab surdo pedagogika sohasida har bir o'quvchining qobiliyatlarini rivojlantirishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratuvchi differensiyalashgan maxsus muassasalarni tuzishi imkoniyatlari o'rganildi.

Maxsus muassasalarga, hozirgi zamon konsepsiyasida nogiron, jumladan eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lismiga ma'lumot o'zgarishlar kiritilgan va ularni amalga oshirish ishlari olib borilmoqda. Zamonaviy maxsus ta'lismi standartlariga asosan fanlar bo'yicha o'quv dasturlar tuzilib chop etilmoqda. Ularga mos ravishda darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlash ishlari jadal suratlarda olib borilmoqda.

Maktabgacha tarbiya – eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ijtimoiy tarbiyasi ilk yoshlardan boshlanadi. Maktabgacha tarbiya tizimi davlat, ijtimoiy tusga ega bo'lib, muhim ijtimoiy masalalarni hal qiladi; eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni har tomonlama kamol topshirish; kar va zaif eshituvchi bolalar nuqsoni rivojlanishining oldini olish, korreksiyalash, ularning sog'lig'ini himoyalash va mustahkamlash.

O'rta ta'lismi – kar, zaif eshituvchi va kech kar bo'lgan bolalar uchun maxsus umumta'lismi maktab-internatlari o'quvchilarning ta'lismi tarbiyasini, maktab ta'lmini, shuningdek ularning nuqsonli rivojlanishi korreksiyasini amalga oshiradi. Maxsus umumta'lismi maktablarida ta'lismi tasdiqlangan o'quv rejaliari va dasturlari asosida amalga oshiriladi. Sinf va tarbiya guruhlari 10-12 nafardan, murakkab nuqsonli bolalar uchun 5-7 nafardan iborat bo'ladi.

Kasb ta'limi – maxsus o'rta umumta'lismi va kasb maktabi kechki maxsus umumta'lismi maktabi XIII-XV-sinflarini qamrab oladi; kasb-hunar maktablaridagi maxsus guruhlar. Ushbu muassasalar tizimi eshitishda nuqsoni bo'lganlar uchun o'rta ma'lumot va kasb tayyorgarligini ta'minlaydi.

Oliy ta'lismi – eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi barcha fuqarolari singari oily o'quv yurtlariga kirish huquqiga egadir. Kar va zaif eshituvchilar barcha kasblarni tanlash huquqiga ega, eshitib nazorat qilish talab etiladigan kasblar bundan mustasno. Oliy o'quv yurtlarida eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun maxsus guruhlar tashkil etiladi.

Prezidentimizning “O‘zbek imo-ishora tili va Brayan alifbosini rivojlantirish bo‘yicha qo‘srimcha chora–tadbirlar to‘g‘risida” gi qaror qabul qilindi. Bu qonunda 2023-yil 1-yanvardan boshlab, talablardan kelib chiqqan holda, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida hamda “ishga marhamat” mono markazlarida o‘zbek imo-ishora tili va braynl alifbosini o‘rgatish bo‘yicha maxsus o‘quv kurslari tashkil etiladi;

- maxsus o‘quv kurslarida ko‘rish, eshitish va nutqida nuqsoni bo‘lgan shaxslar hamda ushbu toifadagi voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar – bepul, qolgan shaxslar – pullik asosda o‘qitiladi

- 2023- yil 1- yanvardan boshlab:

- davlat telekanallarida haftalik efir vaqtining kamida besh foiz hajmdagi ko‘rsatuvlar surdo tarjima, yashirin suhbatlar yoki “yuguruvchi satrlar” bilan nomoyish etiladi;

- davlat OTM larining magistratura mutaxassisliklariga hamda oily ta’limdan keyingi ta’lim ixtisosliklariga o‘qishga qabul qilishda ko‘rish, eshitish va nutqida nuqsoni bo‘lgan shaxslar tomonidan xorijiy yilni bilish bo‘yicha milliy yoki unga tenglashtirilgan xalqaro sertifikatni taqdim etish talab etilmaydi;

- OTM ga kirish imtihonlarida qatnashayotgan eshitish va nutqida nuqsoni bo‘lgan abituriyentlar majburiy tartibda surdo tarjimon xizmatlari bilan ta’minlanadi;

- 2024/2025- o‘quv yilidan boshlab kar va zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarining o‘qituvchi lavozimiga faqat dars qo‘yiladigan imo-ishora tilini biladigan pedagog kadrlar ishga qabul qilinadi;



Surdo pedagogikani rivojlantirish maqsadida 2022/2023- o‘quv yillarida Chirchiq davlat Pedagogika universitetida ilk marotaba Surdo pedagogika yo‘nalishi ochildi. Bu yo‘nalish bo‘yicha 50 ta kvota ta’sis etilib shulardan 20 o‘rin davlat granti uchun ajratildi. Shuning o‘zi ham mamlakatimizda surdo pedagogika sohasining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Sh.N.Ibadullayeva. Zaif eshituvchi bolalarni nutqiy jihatdan tayyorlash oliyatining ahamiyati Uzbek Scholar Journal Volume- 10, Nov., 2022 www.uzbekscholar.com 205-208

2. Sh.N.Ibadullayeva.Yorqulova Risolat Otabek qizi Eshboboyeva Iroda A’zamjon qizi Logopediya yo‘nalishi talabasi Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Otaxonova Sumbula Xudayor qizi Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi Eshitishida Nuqsoni Bo‘lgan Shaxslarning Muloqoti Uchun Qilinayotgan Ishlar Amalda.PERIODICA. Journal of modern Philosophy, Social Sciences and Humanities.ISSN NO:2720-4030 Volume 12, November, 2022 227-229.



3. Sh.N.Ibadullayeva. . Yorqulova Risolat Otabek qizi Eshboboyeva Iroda A'zamjon qizi Logopediya yo'nalishi talabasi Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Otaxonova Sumbula Xudayor qizi Boshlang'ich ta'lism yo'nalishi talabasi Alovida yordamga muhtoj bolalar ota-onalarini psixologik va pedagogik jihatdan qo'llab quvvatlash. Galaxy international interdisciplinary research journal (giirj) issn (e): 2347-6915 Vol. 10, Issue 11, Nov. (2022)739-742.
4. Sh.N.Ibadullayeva Pedagogika desantura-ta'lism klasteri asosida inklyuziv ta'lism samaradorligini oshirishning innavotsiyon mexanizmi sifatida Myfallim ҳэм узлуксиз билимлендириў илмий-методикалиқ журнал № 6/3. Nukus 2022y.47,51.
5. Sh.N.Ibadullayeva Sh.F.Xabibullayeva R.S.Otajonova "O'zbekistonda inkluyziv ta'lism" Международный современный научно-практический журнал "Научный импульс" № 5 (100) Декабрь 2022г. Часть 1 154,157.
- Sh.N.Ibadullayeva О.Y.Axmadiyeva "PEDAGOGIK DESANTURA" Международный современный научно-практический журнал "Научный импульс" № 5 (100) Декабрь 2022г. Часть 1151,153.
6. Sh.N.Ibadullayeva M.O'.Nuriddinova inklyuziv ta'limgning mohiyati Международный современный научно-практический журнал "Научный импульс" № 5 (100) Декабрь 2022г. Часть 1161,164.
7. Sh.N.Ibadullayeva S.E.Boqiyeva "Har kim o'z tili bilan tirik" Международный современный научно-практический журнал "Научный импульс" № 5 (100) Декабрь 2022г. Часть 2 1190,192.
8. Sh.N.Ibadullayeva, B.J.Bekchanova Bag'rikenglik, tenglik, integratsiya –“oq qamish” chellenchida Международный современный научно-практический журнал "Научный импульс" № 5 (100) Декабрь 2022г. Часть 2 618,621.
10. Sh.N.Ibadullayeva S.J.Muvassarova MENDAN KEYINGI 1000 QADAM SENIKI Международный современный научно-практический журнал "Научный импульс" № 5 (100) Декабрь 2022г. Часть 2 621,624.
11. Monografiya. Sh.N.Ibadullayeva. "Ta'lism klasteri asosida inklyuziv ta'lism samaradorligini oshirish", <https://novateurpublication.com/index.php/np/catalog/book/158>
12. Pulatova, D. A. (2022). THE USE OF ICT IN CLASSES ON THE DEVELOPMENT OF AUDIO PERCEPTION AND FORMATION OF PRONUNCIATION IN CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENTS. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(19), 441-445.
13. Pulatova, D. A. ESHITISHDA NUQSONI BO 'LGAN BOLALARNING O'QUV FAOLIYATIGA MOTIVATSİYASINI OSHIRISHDA AXBOROT-KOMMUNİKATSIYA TEXNOLOGİYALARI IMKONİYATLARIDAN FOYDALANISH. ЭКОНОМИКА, 514-517.
14. Usmanovna, Q. F., Azamkulovna, P. D., & Maxkamovna, M. D. (2022). INKLUYZIV TA'LIMDA KADRLAR MASALASI. O'ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSİYALAR VA İLMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 834-842.
15. Azamkulovna, P. D. (2022). BO 'LAJAK O 'QITUVCHI-DEFEKTOLOGLARGA İLMIY-TADQIQOT FAOLIYATINI OLIB BORISHNI O 'RGATISH KASBIY FAOLIYATGA TAYYORGARLIK KO 'RISH OMILI SIFATIDA. ScientificImpulse, 1(5), 413-418.



**“TA'LIM TIZIMIDA YANGI METODIKALAR VA ULARDAN
FOYDALANISHNING AMALIY ASOSLARI” MAVZUSIDAGI**

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

2023 yil 25 aprel.

Texnik muharrir:

Jalilov D.J.

«Qo`ldovli yangi obod» x/k matbaa bo`limida chop etildi.
Adadi 100 nusxa. Buyurtma №30. hajmi 366 bet. Format A5. 2023 yil.



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
МАКТАБГАЧА ВА МАКТАБ
ТАЪЛИМИ ВАЗИРЛИГИ



НАВОЙ ВИЛОЯТИ ПЕДАГОГЛАРНИ ЯНГИ МЕТОДИКАЛАРГА
ЎРГАТИШ МИЛЛИЙ МАРКАЗИ
“МАКТАБГАЧА, БОШЛАНГИЧ ВА МАХСУС ТАЪЛИМ
МЕТОДИКАЛАРИ” КАФЕДРАСИ
“ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЯНГИ МЕТОДИКАЛАР ВА УЛАРДАН
ФОЙДАЛАНИШНИНГ АМАЛИЙ АСОСЛАРИ”
РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ
АХБОРОТ ХАТИ

Навоий вилояти педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий марказида “Таълим тизимида янги методикалар ва улардан фойдаланишнинг амалий асослари” республика илмий-амалий анжумани ўтказилади.

Анжуманнинг расмий тиллари: ўзбек, рус, инглиз ва қозоқ тиллари.

Анжуман ташкилотчилари: Навоий вилояти педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий маркази.

Анжуманни ўтказилиши жойи ва муддати: Навоий вилояти педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий маркази, 2023 йил 21 апрел.

Анжуман ишининг ўналишилари:

1-шўъба: Мактабгача ва бошлангич таълимда инновацион технологиялардан самарали фойдаланиш асослари.

2- шўъба: Табиий фанларни ўқитища инновацион технологияларнинг ўрни ва аҳамияти.

3- шўъба: Таълим жараёнига педагогик технологияларни тадбиқ этишида психологик ёндашув.

4- шўъба: Мактабларда инклузив таълимни ривожлантириш.

5- шўъба: Таълим жараёнига янги методикаларни жорий этишида ахборот технологияларидан самарали фойдаланиш.

Республика илмий-амалий анжуманида иштирок этувчиликнинг илмий ва илмий-услубий мақолалари қуйидаги талаблар асосида қабул қилинади:

1. Мақолалар тўлиқ 3 ва ундан юқори бет ҳажмда (шу жумладан формулалар, жадваллар, расмлар, фойдаланилган адабиётлар рўйхати ва х.к.), электрон вариантида “MS Word” редакторида, “Times New Roman” шрифтида, 1,5 интервалда, Ф-4 форматида варақнинг чап томонидан 3 см, юқори ва пастидан 2 см, ўнг томонидан 1,5 см жой қолдирилган ҳолда расмийлаштирилиши ва мукаммал таҳрир этилган бўлиши шарт.

2. Мавзу бosh ҳарфлар билан ўртага, бир сатрдан сўнг муаллифнинг исми ва фамилияси, кейинги сатрда муаллифнинг илмий даражаси, унвони, доимий иш жойи ва лавозими кўрсатилиади.

3. Илмий мақоланинг файли номи, муаллифнинг фамилияси ва иш жойи билан қўйилсин.

4. Анжуман иштирокчиларининг белгиланган талабларга мос мақолалари асосида тўплам тайёрланади.

5. Интернетда мавжуд манба ва журналлардан кўчирилган мақола ва тезислар қабул қилинмайди. Таклиф этилаётган мақола ва тезислар анжуман мавзуси доирасида бўлиши шарт ҳамда тадқиқотда долзарб муаммо ва унинг ечими батафсил баён этилиши зарур.

6. Белгиланган талабларга жавоб бермаган мақолалар анжуман материаллари тўпламига киритилмайди. Мақолада баён этилган маълумотлар, унинг илмий-назарий асосланганлиги ва услубий ёндашувлари бўйича муаллиф масъулдир.

Анжуманга тегишли материаллар 2023 йил 15 апрелгача қабул қилинади.

Анжуманда иштирок этишни хоҳловчилар мақолаларни қуйидаги манзил ва телерам номерига 2023 йил 15 апрелгача юборишлари сўралади:

**Анжуманга келган мақолалар бепул чиқарилади ва сертификат билан тақдирланади,
Анжуман тўплами электрон кўринишда тақдим этилади.**

Кармана шаҳри, Тошкент кўчаси, 41^А-үй.

Телефон: +998 91 333 16 18, +998 91 339 01 76.

Телеграм: +998 91 333 16 18, +998 91 339 01 76.